

PEDIATRIYANING RIVOJLANISH TARIXI.

Aliyeva Madinaxon

*Marg'ilon shahar 1- son ali abu ibn sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola pediatriyaning rivojlanish tarixi xaqida bo'lib mavzu yuzasidan keng yoritilgan. Ushbu maqolada pediateriya fani tushunchasi uning yurtimizdagi rivojlanish tarixi atroflicha muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *pediateriya, bolalar, kasallik, tibbiyot, organizm, mexanizm, davolash.*

Pediatriya (yunoncha: pais – go'dak va iatreia – davolash) – bola organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlari, bolalar kasalliklarining kelib chiqish sabablari va ularning rivojlanish mexanizmlarini o'rganadi; kasalliklarni aniqlash, davolash va ularning oldini olish usullarini ishlab chiqadi.

Bolalarni ovqatlantirish, parvarish qilish, ba'zi bolalar kasalliklarini davolash to'g'risida ayrim fikr va maslahatlar beruvchi mutaxassis Gippokrat, Galen, Abu Ali ibn Sino va boshqa asarlarida uchrasa ham, pediatriya XX asrning 2-yarmida mustaqil fan sifatida shakllandi.

O'zbekistonda pediatriya sohasidagi tadqiqotlar o'rta Osiyo universiteti tibbiyot fakulteti bolalar kasalliklari kafedrasida boshlandi. 1927-yilda Toshkentda Onalik va bolalikni muhofaza qilish ilmiy tadqiqot institutining tashkil qilinishi, keyinchalik tibbiyot institutlarida pediatriya fakultetining ochilishi, 1962-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi qoshida „Bolalar organizmining norma va patologiyadagi yosh xususiyatlari“ muammolari respublika komissiyasining tuzilishi, 1966-yilda „Akusherlik, ginekologiya va pediatriya ilmiy tadqiqot instituti“ning qayta tashkil qilinishi, 1972-yilda Urta Osiyo pediatriya tibbiyot instituti (hoz. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti)ning barpo etilishi pediatriya fanining tez rivojlanishiga imkon berdi.

1920-yildan boshlab mahalliy turmush sharoitlari, ularning bola organizmiga ta'siri, O'zbekiston sharoitida bolalar kasalliklarining kechish xususiyatlari va ularning oldini olish yo'llarini o'rganishga kirishildi; bezgak kasalligi (N. I. Osinovskiy, K. G. Titov, L. M. Isayev, L. S. Aleksandrova), bolalikdagi visseral leyshmanioz va boshqa kasalliklar o'rganildi (N. I. Xodukin, R. S. Gershenovich, M. A. Mirzoyan, V. K. Ivanov), 50—60-yillarda bolalardagi o'tkir va surunkali me'da-ichak kasalliklari ustida ish olib borildi (S. G. Shamsiyev, H. A. Yunusova, O. S. Maxmudov, V. G. Balobonkin, M. A. Mirzamuhamedov, F. X. Nazarmuhamedov, B. A. Aminov, A. H. Hamroyev va boshqalar).

Respublikamiz iqlim sharoitida bolalar siydik yo'lining fiziologiyasi va patologiyasi (K. X. Tohirov, L. S. Aleksandrova, A. S. Saydaliyev, A. S. Sulaymonov), bolalar sili (M. 3. Lyu-betskaya, A. A. Saidaxmedov, V. A. Elkonina), qon kasalliklari o'rganildi (A. T. To'rayev, N. N. Chukanin, 3. N. Bekna-zarova). Ona qornidaligida gipotrofiyaga uchragan bolalarda ularning yoshiga va ovqatlanish turiga qarab

aminokislotalar almashinuvi masalasi, nefritda bolalar immun reaktivligi ko'rsatkichlari, o'tkir va surunkali virusli gepatitlarning oldini olish, ularga tashxis qo'yish va davolash masalalari (H. A. Yunusova, O. S. Maxmudov, N. S. Loginova, K. M. Mirzayev, T. O. Daminov), o't pufagi va o't yo'llari kasalliklari, revmatik kasalliklar, yosh bolalarda elektroensefalik xususiyatlar o'rganildi (M. A. Mirzamuhamedov, I. A. Bodnya, S. N. Yo'ldosheva, M. R. Nuritdinov, A. T. Oqilov, S. Abdurahmonova va boshqalar). Bolalardagi zotiljam, allergik va immunologik kasalliklar, shuningdek, pediatriya fani va amaliyotining eng dolzarb muammosi – sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish ustida keng ko'lamda ilmiy ishlar olib borilmoqda. Bola sog'liq holatining mamla-katimizga xos bo'lgan me'yor ko'rsatkichlari, bola organizmining immun holati, sog'lom va bemor bola ovqatlanishi masalasi hamda buni yaxshilash yo'lyo'riqlari, sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish va boshqa muammolarni har tomonlama o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Pediatriya rivojlanishining birinchi davri — XVI asrdan XVIII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda juda ko'p bilimlar mavjud bo'lsa ham, ular hali aniq bir tizimga solinmagan edi. Pediatriya ana shu davrda tibbiyotning bir sohasi sifatida ajralib chiqdi. Chunki, aksariyat olimlarning asarlarida bolalar salomatligini saqlash haqida ibratli fikrlar bor edi. Chunonchi, olimi M.V.Lomonosov asarlaridan birida xalq sog'lig'ini saqlashga taalluqli asosiy choratadbirlarni belgilash bilan bir qatorda, tug'adigan, tuqqan ayol to'g'risida davlat yo'li bilan g'amxo'rlik qilish va bolalar o'limiga qarshi kurashish zarurligini ko'rsatib berdi. Jumladan, nikohsiz tug'ilgan bolalar uchun yetim xonalar ochish lozimligi ham ana shu asarida olg'a surildi. Professor-akusher N.M.Maksimovichning asarlarida bolalarni to'g'ri parvarishlash, yosh go'daklarga xos kasalliklar tasvirlab berilgan. Pediatriyaning tibbiyotning alohida bir sohasi sifatida rivojlanishida, uning maqsad va vazifalarini yaqqol ta'riflab berilishida professor akusher S.F.Xotovitskiy juda muhim o'rin egallaydi. U akusherlik klinikasi qoshida birinchi bo'lib bolalar bolimini tashkil qildi, bolalar kasalliklariga oid dastlabki qollanma - «Pediatriya»ni yaratdi. Ana shu asarida u quyidagi olam shumul «... Bola faqat uning o'ziga taalluqli qoidalarga muvofiq o'sib, rivojlanib boradigan zotdir. Bola - katta yoshli odamning shunchaki jajji bir nusxasi emas», degan fikrlarni bayon qilgan edi. Pediatriya rivojlanishining ikkinchi davri XIX asrning boshidan to 1917-yilgacha davom etdi va bu davrda pediatriya alohida fan sifatida ajralib chiqdi. Bunda o'sha davrda aksariyat rivojlangan shaharlarda bolalar kasalxonalarining ochilishi va universitetlar qoshida bolalar kasalliklari kafedralarining tashkil etilishi muhim omil bo'ldi. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida pediatriyaning rivojlanishida yuksalish davri boshlandi. Buyuk shifokor-olimlar N.F.Filatov va N.P.Gundobinlarning samarali faoliyatlari natijasida tibbiyotda pediatriklar maktabi yaratildi. Klinik olim va pedagog N.F.Filatovning «Bolalar kasalliklari semiotikasi», «Infeksion kasalliklar to'g'risida leksiylar», «Bolalarda uchraydigan me'da ichak kasalliklaridan leksiylar», «Bolalar kasalliklaridan qisqacha darslik», «Klinik leksiylar» kabi bir qator ishlari uni haqli ravishda pediatriyaning asoschisi deb tan olinishiga sabab bo'ldi. Bolalarning anatomik-gistologik va fiziologik xususiyatlari haqida juda ko'p izlanishlar olib borgan va bolalar o'limiga qarshi kurash

ittifoqining asoschilaridan biri harbiy-tibbiyot akademiyasining professori N.P.Gundobin edi. «Bolalik davri xususiyatlari» deb nomlangan asari esa hozirgi kunda ham o'zining ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Pediatriya rivojlanishining uchinchi davri 1917-yildan hozirgi mustaqillikka erishilgan vaqtgacha bo'lgan oraliqni o'z ichiga oladi. Bu davrda pediatriyaning rivoji, bolalar salomatligini saqlash, bolalar kasalliklari va o'limini kamaytirish bo'yicha qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar mehnatini muhofaza qilish, sut oshxonalarining tashkil etilishi, homilador ayollar va tuqqan ayollarga mehnat ta'tillari berish, ayollar va bolalarga xizmat qiluvchi muassasalar tarmog'ining kengayishi shular jumlasidandir. Ayollar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, pediatriya xizmatini yanada yuqori saviyaga ko'tarish, soglom avlodni kamoltoptirish O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan izchil siyosatning bosh maqsadi hisoblanadi. Shuning uchun pediatriyaning to'rtinchi rivojlanish davri deb hozirgi muvaffaqiyatlarimizni e'tirof etsak arziydi. Chunki bolalar salomatligini saqlash, ayollarga g'amxo'rlik qilish, bolalar kasalliklarini oldini olish va davolash haqida vatanimizning buyuk allomalari juda ko'p tadqiqotlar olib borishgani, pediatriya rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shganliklari va hozirgi kunda ham qo'shayotganliklari haqida g'urur bilan gapirishimiz va faxrlanishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J.Eshqobulov, A.Mahmudov. Bolalar kasalliklari fani. Abu Ali ibn Sino no-midagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1993.
2. K.A.Svyatkina, E.V.Belogorskaya, N.P.Kudryavsev. Bolalar kasalliklari fani. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1990.
3. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1997.
4. Y.K.Subulkina. Bolalarga tez tibbiy yordam. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. Toshkent. 1991